RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR - TA'LIM SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Raximov Gayrat Axmatkulovich - Shirin shahar 1-son umumiy o'rta ta'lim maktabi Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

Bugungi muntazam amalga oshirilayotgan ta'lim isloxotlari, innovatsion jarayonlarning asosiy vazifalardan biri raqamlashtirish jarayoni xususiyatlariga to'la moslashish xisoblanadi. Xalqaro mikyosda ijtimoiy institutlarning ta'lim tizimi boshqaruvidagi o'zaro xamkorligini takomillashtirish dolzarbligi tobora ayon bo'lib bormoqda. Shuning uchun xam ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini axborotlashtirishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish, integrativ ta'lim muhitini yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga aloxida e'tibor qaratish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Zamonaviy kompyuter vositalari va multmediya texnologiyalari ta'lim jarayonida didaktik material tayyorlash vazifasini engillashtiradi. Kompyuter bilan didaktik materiallarni uyg'unlikda qo'llash o'rganilayotgan mavzuni talabalar tomonidan o'zlashtirishda katta yordam beradi. Bundan 3500 yil muqaddam Konfutsiy "eshitganimni yodimdan chiqaraman, ko'rganiimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam tushunib etaman", degan ekan. Ta'limda informatsion hamda pedagogik texnologiyalarni qo'llaganda, o'quvchi eshitish, ko'rish, ko'rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan ko'rinib turibdiki o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari qatoriga, kompyuter texnologiyasini kiritish zarurati kundan kunga oshib bormoqda. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni tashkil etish uchun ma'lum bir shart-sharoitlar va texnik vositalar mavjud bo'lishi lozim. Bularga axborot resurslari va maxsus dasturiy ta'minotlar kiradi.

Axborot resurslariga: shaxsiy kompyuterlar, noutbuk, planshet, proektor, multmediya vositalari, skaner, raqamli fotoapparat, video kamera, printer, nusxa ko'chiruvchi qurilma va boshqa resurslar kiradi.

Maxsus dasturiy ta'minotlarga: ta'lim tizimida multmediali elektron o'quv adabiyotlar, ma'ruzalar, vertual laboratoriya ishlari, har xil animatsion dasturlar va yana boshqa ishlarni bajarish kerak bo'ladigan narsa maxsus dasturlar hisoblanadi. Bu dasturlar juda ko'p. Masalan: animatsion kontentlar yaratish uchun Macromedia Flash MX dasturidan foydalaniladi. Multmediali taqdimot ma'ruzalarini yaratishda hammamizga ma'lum bo'lagan Power Point Macromedia Authorware dasturi qo'llaniladi. Elektron o'quv adabiyotlarni yaratish davomida keng foydalaniladigan

tahrirlovchi dasturlar ham mavjud bo‘lib, ulardan Adobe Photoshop dasturidan rasmlarni tahrirlash, sifatini oshirishda foydalaniladi, Corel Draw dasturi orqali har xil grafiklarni yaratish mumkin, tovush va videolarni tahrirlash uchun esa mos ravishda Sound Forge va Adobe Premier dasturlaridan keng foydalaniladi. Shuningdek, ta'lim tizimida tayyor ishlab chiqilgan multmediali elektron o‘quv qo‘llanmalar mavjud.

Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo‘llashda quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

- qo‘shimcha elektron zahiralarni, ma'lumotlar va kutubxonalarni yaratish, tarmoqdan axborotni izlashni ta'minlovchi maxsus dasturiy ta'minotni ishlab chiqish kerak;

- o‘qituvchilarning o‘quv-uslubiy ishlarini takomillashtirish, internetdan foydalanish, axborot texnologiyalari va psixologiya sohalari bo‘yicha mutaxassis bilan hamkorlikni o‘rnatish;

- fan-texnika va texnologiyalarning so‘ngi yutuqlari bo‘yicha ma'lumotlardan foydalanish;

- kompyuter vositasida o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar va faol metodlarni qo‘llash;

- baholashda talabalarni faolligi va mustaqil ishlash qobliyatiga alohida e'tibor qaratish.

Hozirgi kunda talim muassasalarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘rinli foydalanib kelinmoqda. Jumladan barcha darslarida ham axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanib kelinmoqda. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim sohasida, o‘quvchining rivojlanishida ijobiy o‘zgarishiga olib keladi, bunda idrok etish, hissiy motivizatsiya jarayonida ular talabaning xarakteriga ta'sir ko‘rsatadi, bu vaqtda ta'lim oluvchini idrok etishga qiziqishi kuchayadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim oluvchining o‘quv jarayonida (mustaqil ishlash, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini o‘qitish, o‘z faolligini oshirish, o‘zi mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi). Psixologik tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar ta'lim oluvchilarni nazariy-ijodiy va modulli-refleksli fikrlashlariga ta'sir ko‘rsatadi, negaki o‘quv axborotlarini kompyuterda vizuallashuvi tasavvur etishni shakllanishiga ta'sir ko‘rsatadi, obrazli fikrlashda markaziy o‘rin egallashi, obrazli tasavvurlash yoki boshqa xil namoyon bo‘lishlar va talabaning xotiraga olish jarayoni o‘quv materialini qabul qilishni osonlashtiradi va rivojlantiradi. Bunda quyidagi asosiy tamoiyllarga amal qilish lozim:

- insonparvarlik, ya'ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko‘rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishoch bilan qarash;

- hamkorlik, ya'ni pedagog va talabalar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;

- erkinlikni tarbiyalash, ya'ni shaxsga uning hayot faoliyatining keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqilligini berish, natijalarni tashqi ta'sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish.

Hozirgi vaqtda fanlarni o‘qitishda turli dasturiy pedagogik vositalardan foydalanilmoqda. Bu dasturiy pedagogik vositalar shaxsga yo‘naltirilgan, talabaga qulay tarzda yaratilgan bo‘lib, bunda ma'ruza, amaliy, laboratoriya va mustaqil ish topshiriqlarini tushunmagan joyida orqaga qaytish imkoniyatlari, o‘ziga qulay bo‘lgan vaqtda ishlash imkoniyatlari uning fanni tez o‘zlashtirishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida talabada o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, unda kompyuterda ishlash jarayonida o‘zini erkin tutish imkoniyati tug‘iladi, natijada har-xil his-hayajonlarga berilmaydi, o‘qituvchi yordamiga kamroq ehtiyoj sezadi, o‘zini-o‘zi test savollari orqali tekshirib ko‘radi, ya'ni o‘zini-o‘zi baholay oladi, uni hech kim o‘qishga majburlamaydi, o‘zi ixtiyoriy ravishda kompyuterda ishlashga o‘tadi.

Xulosa qilib aytganda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanilganda ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligi oshadi, demak barkamol avlod va etuk mutaxassislarni tarbiyalashda axborot kommunikatsiya texnologiyalari muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Ta'limni axborotlashtirish global jarayonning bir qismidir. raqamli texnologiyalar butun dunyoda XXI asrning asosiy texnologiyalari sifatida e'tirof etilmoqda, ular kelgusi o‘n yilliklarda davlatning iqtisodiy o‘sishining kaliti va ilmiy -texnik taraqqiyotning asosiy dvigateli bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuxamadov R. Abduqodirov A. Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. –Toshkent 2008 – 181 bet.

2. M.Kamoldinov, B.Vaxobjonov. Innovatsion pedagogik texnologiya acoclari.-T: “Talqin”, 2010 y.

3. Umarov Z. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish pedagogikasi fani asoslari-// J. Pedagogik mahorat. 2021. 4-son. –B. 19–22.

4. Yuldashev, U.A., Xudoyberdiev, M.Z., & Axmedov, T.B. (2021). O‘quv jarayonining sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. // Academic research in educational sciences, 2(3), 1262-1268.